



Green University



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO VILOYAT EKOLOGIY, ATROF MUHITNI MUHOFAZA
QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI BOSHQARMASI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
GREEN UNIVERSITY - MARKAZIY OSIYODA ATROF MUHIT VA
IQLIM O‘ZGARISHINI O‘RGANISH UNIVERSITETI
KAZAN FEDERAL UNIVERSITETI
TYUMEN DAVLAT UNIVERSITETI
M. AKMULLA NOMIDAGI BOSHQIRDISTON DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
OMSK DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
UI GREENMETRIC – XALQARO REYTING AGENTLIGI

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA CHO‘L – VOHA
EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR
MAVZUSIDAGI XALQARO SIMPOZIUM

MATERIALLARI



BUXORO – 2023

tashkil etadi, uning asosiy mohiyati shundan iboratki, u yoshlarning ham aqliy imkoniyatlariga, ham hissiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari oilada ekologik tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan an'analarga chuqur e'tibor ko'rsatish maqsadga erishishimizda muhi omil sanaladi. Jumladan qadimgi urf-odatlarimizda nonga hurmat, uni e'zozlash, suvga tuflamaslik, hayvonlarga ozor bermaslik bilan bogliq bo'lgan "Daraxtlarni sindirma, ekinlarni payxon qilma, yomon bo'ladi" kabi iboralar ekologik tarbiyaning oila bosqichidagi asosi bo'lib hisoblanadi. Agarda ota-ona tarbiya jarayonida o'z farzandiga mana shu tarbiyani singdira olsagina, kelajagimizbo'lgan farzandlarimizni ekologik tabiyalashga hissa qo'shgan bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, oilaning asosiy ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy vazifalarini qisqacha taxlil qilar ekanmiz, bolada shakllanadigan barcha hissiy, ruhiy tuyg'ular: mehribonlik, oqibatlilik, atrof muhitga nisbatan ma'suliyatlilik ota-ona ibrati orqali oilada shakllanadi va ta'lim muassasalarida bola ongida yanada mustahkamlanadi. Farzandining o'z zamonasining yuksak madanitali kishisi qilib tarbiyalashi uchun ota-ona unga jismoniy madaniyat, ijod madaniyati, reproduktiv madaniyat, kasbiy madaniyat, kiyinish madaniyati, mehnat madaniyati, muomala madaniyati, muloqot madaniyati, nutq madaniyati, ovqatlanish madaniyati, soglom turmush tarsi madaniyati, ekologik madaniyat kabi qator sohalarda bilim va tasavvurga ega bo'lish kerakligi haqida ma'lumot berishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham shaxs axloqiy, barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish, uning ma'naviyatini oilada va mavjud ilmiy, tabiyaviy, uslubiy vositalar, ta'lim imkoniyatlari bilan mustahkamlash pedagogik jarayondagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: "O'zbekiston", 2008.
2. Ergashov A.Umumiy ekologiya- T.: "O'zbekiston", 2003,-453b

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LANDSHAFTSHUNOSLIK ASOSLARI FANINING AHAMIYATI

Ergasheva Mavjuda Komiljonovna
G.f.f.d.

Axtamova Maftuna Rustam qizi
1-bosqich magistrant

Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi ergashova.76@mail.ru

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini tashkil etishda 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-con "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'ricida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda bo'lajak geografiya fani mutaxassislarining landshaftshunoslik asoslari fani bo'yicha kasbiy tayyorgarligini zamonaviy ta'lim standartlariga moslashtirish, ilmiy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy faoliyatda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini orttirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy landshaftshunoslik deganda nazariy landshaftshunoslik, landshaft metodologiyasi va amaliy landshaftshunoslik e'tirof etilmoqda. Ular ham o'z navbatida tarkibiy qismlardan iborat. Jumladan, nazariy landshaftshunoslik – umumiy landshaftshunoslik, landshaft morfologiyasi, landshaftlar tipologiyasi va tasnifi, landshaft geofizikasi, landshaft geokimyosi, landshaft biofizikasi, landshaft estetikasi, landshaft ekologiyasi, paleolandshaftshunoslik, akval landshaftshunoslikdan iborat bo'lsa, landshaft metodologiyasi, dala landshaft tadqiqotlari metodlari, landshaftshunoslikdagi matematik metodlar,

landshaftshunoslikda GAT texnologiyasini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim muassasalarida landshaftshunoslik asoslari fanini o'qitish metodikasi takomillashtirish pedagogik nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning didaktik imkoniyatlarini baholash, o'qitishning vizual-tadqiqiy samaradorligini bosqichma bosqich kengaytirish hamda shaxslararo muloqotga kirishish faoliyatini individuallashtirish jarayonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan. Oliy ta'lim muassasalarida "Landschaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish sifati-samaradorligini yanada takomillashtirish, bu fanning o'quv-metodik va axborot ta'minotini mustahkamlashdan biri hisoblanadi. Demak, ilmiy pedagogik shart-sharoit doirasida, elektron axborot ta'lim resurslarining didaktik ahamiyati, o'zlashtirish samaradorligiga ta'sir etadigan samarasini inobatga olish joizdir. Ta'lim jarayonlariga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar, interfaol metodlarni qo'llashga qiziqish kun sayin oshib bormoqda.

Landschaftshunoslik fanining nazariy-metodologik masalalari MDH mamlakatlarida N.A.Solnsev, N.A.Gvozdetskiy, V.A.Nikolayev, V.B.Sochava, F.N.Milkov, B.B.Polinov, D.L.Armand, Y.K.Yefremov, V.I.Prokayev, A.G.Isachenko va O'zbekistonlik V.M.Chetirkin, L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Abdulqosimov, Sh.S.Zokirov, L.Alibekov, S.B.Abbasov, X.Vahobov, A.Rahmatullayev, A.N.Nigmatov, Y.Sultonov, I.Q.Nazarov, A.A.Hamidov, K.M.Boymirzayev, X.R.Toshov singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarida uchraydi.

Landschaftshunoslik faniga doir bugunga qadar bir qator o'quv adabiyotlari yaratilgan. Jumladan, rus tilida "Ландшафти Узбекистана" "(O'zbekiston landshaftlari)" ilmiy maqolalar to'plami (1966), Y.Sultonovning "Landshaftlar geografiyasi" (1974), keyinchalik, Sh.S.Zokirovning "Kichik hududlar tabiiy geografiyasi" (1999), Sh.S.Zokirov va X.R.Toshovlarning "Landschaftshunoslik" (2015, 2016), A.Abdulqosimov, Y.X.Abdurahmonova va K.Q.Davronovlarning "Zarafshon botig'i voha landshaftlari va geoekologiyasi" monografiyasi (2017) hamda M.K.Ergasheva (2021) larning o'quv qo'llanmalari misol bo'ladi.

O'zbekistonda landshaftlarni tasniflash bo'yicha L.N.Babushkin, N.A.Kogay, M.Umarov, Sh.S.Zokirov, P.Baratov, S.Nishonov, P.G'ulomov, M.Umarov, Y.Sultonov, A.Saidov, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, T.Jumaboyev, S.B.Abbasov, A.Rahmatullayev va boshqalarning ishlarida ma'lum fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, mazkur sohada Samarqand davlat universiteti geograflaridan M.Umarov, S.Nishonov, A.Saidov, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, T.Jumaboyev, A.Rahmatullayev, S.B.Abbasovlar samarali ishlarni amalga oshirib kelishgan va bu ishlar davom etmoqda. Landschaftshunoslikning nazariyasi va amalda tatbiq qilinishi samarqandlik olimlar ilmiy tadqiqotlarida o'tgan asrning 60-80 yillari va undan so'ng 2000-yillarda keng rivojlandi. Bu borada samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan, monografik asarlar nashr ettirilgan.

1966-yilda ("O'zbekiston landshaftlari") nomli to'plam M.Umarov muharrirligida nashr etilgan. Unda S.A.Nishonov, M.Umarov, A.Abdulqosimov, A.Saidov, M.Qo'ziboyev, L.Alibekov singari olimlarning O'zbekistonda landshaft rayonlashtirilishi, hududlarda ro'y beradigan tabiiy geografik jarayonlar, o'zlashtirish masalalari yoritilgan maqolalari o'rin olgan. Oradan biroz muddat o'tgach, yetakchi olimlar tomonidan bir necha monografiyalar e'lon qilinganligi ham ma'lum. Olimlar tomonidan nashr ettirilayotgan adabiyotlardan "Landschaftshunoslik asoslari" o'quv fanlarini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar muhiti asosida usullarning takomillashtirilgan mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida ishlab chiqish, ularning afzallik tomonlarini ko'rsatish va bu usullarni qo'llash orqali samaradorlikka erishish oliy ta'lim oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston landshaftshunosligida landshaft izlanishlarining tipologik, regional va umumiy tushuncha sifatida talqin etilganligini e'tirof etish mumkin. Voronej, Moskva, Sankt-Peterburg, Lvov landshaft maktablari tajribalarini O'zbekiston hududida tadbiq etilishi Toshkent, Samarqand, Farg'ona va boshqa landshaft maktablari vujudga kelishiga va rivojlanishiga olib keldi. O'zbekiston landshaftshunoslarining landshaftlarni tasniflash tajribalari Qarshi dashti (I.Hasanov), Janubiy Orolbo'yi (A.Rafiqov, I.Hasanov), Turon provinsiyasi tekisliklari (N.A.Kogay, Sh.S.Zokirov), Amudaryo va Sirdaryo etaklari oralig'i (SH.S.Zokirov), Farg'ona

botig'i (A.Abdulqosimov), Qashqadaryo vodiysi (S.A.Nishonov), O'rta Zarafshon (A.Saidov), Qizilqum (S.B.Abbosov), Buxoro viloyati cho'l zonasi (X.R.Toshov) Orol tabiiy geografik okrugi (R.Ibragimova) landshaftlari misolida ijobiy natijalar berdi. Oliy ta'limda Landshaftshunoslik fanini o'qitishda ushbu olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanish orqali talabalarda qo'shimcha ma'lumot olish imkonini yaratib, talabalarda fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi

Kelgusida Landshaftshunoslik asoslari fanini o'qitishda quyidagi tavsiyalar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Landshaftshunoslik asoslari fanini o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratish ko'lamini kengaytirish, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining landshaftshunoslik asoslari fanidan darslarini tashkil etishga qo'yiladigan zamonaviy talablarni bilish darajasini oshirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Зокиров Ш.С. Тошов Х.Р. Ландшафтшunoslik. Ўқув қўлланма. Тошкент. "Турон замин зиё" нашриёти. 2016. 200 б.
2. Ташов Х., Эргашева М. Миграция вещества на ландшафтах и их изучение. Познание и деятельность: от прошлого к настоящему. Материалы II Всероссийской междисциплинарной научной конференции. -Омск. 2021. -С 321-324.
3. Тошов Х.Р. Табиий география: тарихи ва баъзи назарий масалалари. Бухоро. 2021.
4. Эргашева М., Нематов А. Ландшафтшunoslik фанининг ривожланиши. О'zMU xabarları. Тошкент. 2023. 3/1. –Б. 351-353.

ТЕХНОЛОГИИ ДИСТАНЦИОННОГО МОНИТОРИНГА ЭКОСИСТЕМ В НАПРАВЛЕНИИ ПОДГОТОВКИ «КАРТОГРАФИЯ И ГЕОИНФОРМАТИКА» КАЗАНСКОГО ФЕДЕРАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА

Панасюк М.В., Пудовик Е.М., Сабирзянов А.М.

Казанский федеральный университет

Дистанционный мониторинг экосистем - относительно новая область знаний и практических умений, возникшая на стыке исследований экосистем, практики применения методов дистанционного зондирования Земли и геоинформационных технологий. Решение задач дистанционного мониторинга требует развитой системы компетенций в области геоинформатики, дистанционного зондирования, фотограмметрии, системного картографирования, что позволяет обеспечить высокое качество и оперативность результатов мониторинга и выработанных на его основе решений в области управления экосистемами.

Для формирования необходимых компетенций и подготовки высококвалифицированных специалистов кафедра географии и картографии Казанского федерального университета разработала и успешно осуществляет в течение последних восьми лет программы бакалавриата и магистратуры по направлениям 05.03.03 и 05.04.03 – «Картография и геоинформатика», в которых представлен ряд дисциплин где, в частности, изучаются методы и технологии дистанционного мониторинга экосистем.

В рамках образовательной программы бакалавриата «Геоинформационные технологии в экономике и управлении» у выпускников формируются четыре главные профессиональные компетенции (ПК) в области дистанционного мониторинга геосистем, включая:

ПК-3 Способен использовать базовые знания в области информатики, компьютерных и мультимедийных технологий, программных средств, в том числе знания

Xasanova Feruza Xurramovna. OLIY TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	230
Ochilova N.R. OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH USULLARI	234
Ochilova N.R. SHAXS XUSUSIYATLARI SHAKLLANISHIDA OILADAGI EKOLOGIK TARBIYANING O'RNI	235
Ergasheva Mavjuda Komiljonovna, Axtamova Maftuna Rustam qizi. Oliy ta`lim muassasalarida Landshaftshunoslik asoslari fanining ahamiyati	237
Панасюк М.В., Пудовик Е.М., Сабирзянов А.М. ТЕХНОЛОГИИ ДИСТАНЦИОННОГО МОНИТОРИНГА ЭКОСИСТЕМ В НАПРАВЛЕНИИ ПОДГОТОВКИ «КАРТОГРАФИЯ И ГЕОИНФОРМАТИКА» КАЗАНСКОГО ФЕДЕРАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА	239
Halimova Gulshan Subhonovna. O'ZBEKISTON PAST TOG'LARINING LANDSHAFT- GIDROLOGIK IMKONIYATLARI XUSUSIDA	244
Halimova R.S., Halimova D.S. TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA KIMYOVIY ELEMENTLARNING AHAMIYATI	246
Halimova G.S., Hamroeva M.Sh. QULJUQTOV TIZMASIDA MAHALLIY SUV RESURSLARINING MAVSUMIY SHAKLLANISH QONUNIYATLARI XUSUSIDA	249
A.A.Qodirov. GEOGRAFIYA TA'LIMINING BA'ZI BIR MUAMMOLARI XUSUSIDA	250